

DASTLABKI TURKIY ARUZ RISOLASI

O'tkir Yo'ldoshev,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti katta o'qituvchisi
utkiryuldoshev491@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18843769>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari xususiyatlari, asarning aruz qismi mohiyati, turkiy aruzshunoslikka xos jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, arab aruzining fors she'riyati va turkiy tilda qay darajada qo'llanilishi masalalariga ham to'xtalib o'tilgan. "Funun ul-balog'a" asari aruz haqidagi alohida tadqiqot hisoblanib, muallif tomonidan arab aruzning nazariy asoslari hamda aruzning turkiy tilga xos xususiyatlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: aruz, "Funun ul-balog'a", turkiy aruz, bahr, vazn, fasl, usuli sitta, qo'lyozma.

Abstract. This article explores the features of Sheikh Ahmad Tarazi's work "Funun ul-balogha", the essence of its section on aruz, and its specific aspects related to Turkic aruz prosody. It also touches upon the extent to which Arabic aruz is applied in Persian poetry and the Turkic language. The work "Funun ul-balogha" is considered a distinct study of aruz, in which the author reflects upon the theoretical foundations of Arabic aruz and the characteristics of aruz specific to the Turkic language.

Keywords: aruz, "Funun ul-balogha", Turkic aruz, bahr, vazn, fasl, usuli sitta, manuscript.

Аннотация. В данной статье раскрываются особенности произведения Шейха Ахмада Тарози "Фунун ул-балог", сущность арузной части произведения, особенности тюркского арузоведения. Также были затронуты вопросы использования арабского аруза в персидской поэзии и тюркском языке. "Фунун уль-балог" считается отдельным исследованием аруза, в котором автор отражает теоретические основы арабского аруза и особенности аруза в тюркском языке.

Ключевые слова: аруз, "Фунун уль-балог", тюркский аруз, бахр, вазн, фасл, усули ситта, рукопись.

Kirish. Adabiyotshunoslikka oid lug'atlarda muayyan o'lchov asosidagi ritmga ega nutq shakli, nazmga she'r deyiladi [1:358]. Muayyan o'lchov asosidagi ritmni vazn deb olsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Turkiy she'riyatning uzoq adabiy-tarixiy taraqqiyotida bir qator she'riy vaznlarni uchratishimiz mumkin. Turkiy adabiyotda eng ko'p qo'llaniladigan she'riy vaznlar barmoq, aruz va erkin vazndir.

Biz tahlilga tortayotganimiz aruz vazni musulmon sharq she'riyatida yetakchi mavqeni egallagan vazn hisoblanadi. Aruz vazni asosan, arab she'riyatiga xos bo'lib, avval forslarga, so'ngra turkiy she'riyatga kirib kelgan.

Adabiyotlar tahlili. Arab aruzi VIII asrda yaratilgan bo'lib, alohida ilm sifatida Xalil ibn Ahmad tomonidan bir tizimga solingach, bu ta'limot keyinchalik arab olimlaridan Ibn Abdu Rabbihning "Al-iqd ul-farid", Ibn as-Sarrojning "Me'yor fi-avzoni she'r", Sohib ibn Abbodning "Al-iqna" va "Al-Va'fa", Abu Zakariyo al-Xatib Tabriziyning "Al-kafi fi-l aruz va l-qavofiy", Abu Abdulloh Xorazmiyning "Mafotih ul-ulum" kabi asarlarida davom ettirildi.

Aruz ilmiy-nazariy ta'limot sifatida, ayniqsa, o'rta asr fors aruzshunosligida o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Bu davrda she'rshunoslikka doir o'nlab asarlar vujudga

keldi. Ular orasida Shamsi Qays Roziyning “Al-mo‘jam”, Nosiriddin Tusiyning “Me‘yor ul-ash‘or”, Vohid Tabriziyning “Jami muxtasar”, Yusuf Aziziyning “Aruz”, Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfiy”, Atulloh Husayniyning “Badoye us-sanoye”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz”, Muhammad G‘iyosuddining “G‘iyos ul-lug‘at” asarlari aruzning nazariy asoslari chuqur va batafsil tarzda bayon qilinganligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Turkiy adabiyotda yaratilgan Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Muxtasar” (“Risolayi aruz”) asarlari ham aruzshunoslik ilmiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Mazkur risolalar faqat turk tilida bo‘libgina qolmay, arab aruzining turkiylashuvi jarayonini ham o‘zida aks ettirgani bilan ahamiyatlidir.

Muhokama. Turkiy she‘rshunoslikka oid ilk nazariy manba sifatida e‘tirof etilgan “Funun ul-balog‘a” asari 1436/1437-yillarda Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy tomonidan yaratilgan bo‘lib, o‘sha davrdagi Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug‘bekka (1394–1449) bag‘ishlangan. Asar haqida undan keyingi manbalarda deyarli ma‘lumot uchramaydi. Faqat Zahiriddin Muhammad Bobur “Risolayi aruz” asarida Taroziy shoir sifatida e‘tirof etib, uning uch baytini misol sifatida keltiradi [2:57], ammo uning asari haqida ma‘lumot keltirmaydi.

Hozirgi kunda asarning fanga ma‘lum yagona qo‘lyozma nusxasi London shahridagi Oksford universiteti qoshidagi Bodlian kutubxonasida №-Eliott 127 raqami ostida saqlanmoqda. Asar qo‘lyozmasi 139 sahifadan iborat bo‘lib, undagi matn 1b-sahifadan boshlangan va 139a-sahifada uzilib qolgan. Qo‘lyozma kolofonidagi ma‘lumotlarga ko‘ra, asar hijriy 989, milodiy 1581-yilda buxorolik xattot Mir Husayn Kulangi Buxoriy tomonidan ko‘chirilgan. Asar bo‘yicha dastlabki ma‘lumot 1930-yilda nemis sharqshunosi Xyerman Ete tomonidan tuzilgan “Bodlian kutubxonasida saqlanayotgan forsiy, turkiy, hindiy hamda pushtu qo‘lyozmalari katalogi”ning ikkinchi qismida uchraydi [3:256]. Unda asar nomi, Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlanganligi, 1225-ustunda №-127 raqami ostida saqlanayotganligi haqida qisqagina aytib o‘tilgan. Eleazar Birnbaumning 1984-yili chop etilgan “Turkiy qo‘lyozmalar: 1960-yildan buyon ro‘yxatga olingan va ro‘yxatga olinmagan qo‘lyozmalar” asarining to‘rtinchi qismida ham ushbu qo‘lyozma haqida ma‘lumot beriladi. Keyinchalik 2003 yili Hermann Ezening katalogi asosida Gunay Kut ham “Funun ul-balog‘a” xususida to‘xtalgan bo‘lib, unda asar haqida umumiy ma‘lumot berish bilan cheklanilgan. Ammo amerikalik sharqshunos olim Devin de Uis ushbu manbalarga va ma‘lumotlarga qaramay bu asarni hech qaysi Yevropa va turkolog olimlar tomonidan o‘rganilmaganligini ta‘kidlaydi. Olim o‘zining “Navoiyning salafлари Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning asarida: XV asrdan buyon Markaziy Osiyo madaniyotshunosligida unutilgan manba” nomli maqolasini ushbu asar tahliliga bag‘ishlaydi. Asar matni A.Hayitmetov tomonidan 1993-yilda kitob holida nashr etildi [4:157] hamda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 2002–2003 yillardagi sonlarida e‘lon

qilindi. Aruzshunos olimi D.Yusupova Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida turkiy aruz masalalari maqolasida ushbu asarning aruzga oid qismini o‘rganib, keng tadqiq qilgan.

“Funun ul-balog‘a” (“Balog‘at fanlari”) muqaddima va alohida nomlangan 5 qismdan (fan) iborat. Birinchi qismda she‘r nav‘lariga to‘xtalib, ularni shakl va mavzu jihatdan tahlil qiladi hamda o‘nta she‘riy shaklning ta‘rifini keltiradi.

Ikkinchi qismda muallif qofiya hamda radifni nazariy jihatdan o‘rganadi va qofiyaning 8 ta turini tushuntirib beradi.

Uchinchi qism ilmi bade haqida bo‘lib, jami 97 ta badiiy san‘at sharhlanib, arab, fors va turkiy tilda yozilgan she‘rlardan misollar keltiriladi.

To‘rtinchi qism aruz tizimiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif aruz bahrlarini tadqiq qiladi.

Beshinchi qism muallif tomonidan muammoning usul va arkoni haqidaligi aytiladi. Mazkur qismni o‘z ichiga oluvchi sahifalar bizga ma‘lum qo‘lyozmada mavjud emas. Devin De Uisning aytishicha, “Funun ul-balog‘a”ning mazkur nusxasi kuchli bo‘ronda yoqqan yomg‘irda ko‘plab qo‘lyozmalar qatori jiddiy shikastlangan.

“Funun ul-balog‘a”ning bugun bizga ma‘lum qo‘lyozmasining salkam yarmini, ya‘ni 76b – 139a sahifalarini aruzshunoslikka doir matn tashkil qiladi. Bu esa asar muallifi aruzshunoslikka jiddiy e‘tibor bilan qaraganligini, boshqa masalalarga nisbatan unga alohida yondashganligini ko‘rsatadi.

Ahmad Taroziy aruz ilmida arab olimlari 16 ta bahrni keltirganligini, ajam olimlari 24 ta bahrga yetkazganligini aytib o‘tadi va o‘z risolasida 40 ta bahr haqida ma‘lumot berib, 366 ta vazni turkiy misollar bilan izohlaganini aytib o‘tadi. Professor D.Yusupova mazkur asar haqidagi tadqiqotida qo‘lyozmada 193 ta vazn tahlil qilinganini ta‘kidlaydi, ammo sababini ko‘rsatmaydi.

Asarda aruzga doir nazariy ma‘lulotlar “fasl” deb nomlangan bo‘limlarda izohlangan bo‘lib, jami 6 faslda juzv, rukn, zihof, bahr va vaznlar haqida ma‘lumot bergan.

“Funun ul-balog‘a”da olim aruzni turkiy til qonuniyatlariga moslashga harakat qilgan. Muallif aruz ilmini yoritishdan bosh maqsadi arab va fors olimlari tomonidan kashf qilingan bahrlarni “turkiy iborat birla bayon” qilish ekanligini aytar ekan, turkiy til imkoniyatlariga alohida e‘tibor qaratadi. Xususan, Taroziy “ng” birikmasining turkiy tilda bir tovushni ifodalashini aytib, aruz vazni bilan bog‘liq o‘rinlarda bu jihatga diqqat qaratilishi zarurligini ta‘kidlaydi:

“Bilgilkim, turkiy lafzda ba‘zi yerda “nun” va “kof” bir harf sonida sanalur, agarchi kitobatta ikki harf bitilur” (2, 91b).

Shuningdek, bahrlar va ulardan hosil bo‘luvchi vaznlarni tushuntirishda muallif asosan turkiy she‘riyat uchun xos bo‘lgan matbu‘ (yoqimli, tab‘ga ma‘qul) vaznlarnigina berishni ma‘qul ko‘radi: “Endi bizning kitobimizning binosi turkiygadur. Nomatbu‘ vaznlarni tark qilsoq, munosibroq bo‘lg‘ay” (2, 118a).

Asarda vaznlarga keltirilgan misollar asosan turkiy tilda bo‘lib, ba‘zi o‘rinlarda vazn mohiyatini yanada yaxshiroq va aniqroq tushuntirish uchun forsiy tildagi baytlardan foydalanilgan.

Asarning uslubi o‘ta sodda va qulay. Turkiy kitobxonga qulay bo‘lishi va o‘rganish osonlashishiga erishish uchun Taroziy ko‘p istilohlarni sodda yo‘sinda bayon qilishga intiladi va ko‘p o‘rinlarda buni qayta-qayta ta’kidlaydi:

“Bilgilkim, ul sababtin bir she’rni tag‘yir qilib, har misol uchun takror qilurbizkim, muftadi (yangi boshlovchi)g‘a har vaznning tafovuti ma‘lum bo‘lg‘ay va hech daqiqa muhmal qolmag‘ay” (2, 100b).

Muallif aruzning eng kichik birliklarini “usuli sitta” atamasi bilan, asliy ruknlarni aynan va o‘zaro almashib takrorlanishi bilan hosil qilingan bahrlarni muttafiq ul-ajzo (8 ta bahr) va muxtalif ul-ajzo (32 bahr) istilohi bilan nomlaydi. 4 lik, 6 lik, 8 lik ruknlarni ham o‘ziga xos tarzda a‘lo (8 rukn), avsat (6 rukn) hamda adno (4 rukn) kabi nomlab, vaznlarni izohlashda “vazn” so‘zini “sho‘ba” istilohi ostida beradi.

Aruzshunos olimi D.Yusupova shu paytgacha turkiy aruzshunoslikka ilk bor Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan kiritilgan deb qaralgan ariz va amiq bahrlari Shayx Ahmad Taroziy risolasida tavil va jadid nomi ostida keltirilganligini ta’kidlaydi. Bu holat aruzshunoslikda bahrlar nomi va taqti‘i turlicha nomlanishi mumkinligi va nazariyada mavjud bahrlar avvaldan qo‘llanilib kelinganligining guvohi bo‘lamiz.

Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida bahrlar soni 19 ta, Zahiriddin Muhammad Boburda 21 ta ekanligini hisobga olsak, “Funun ul-balog‘a”da 40 ta bahr nomining keltirilishi asarning turkiy aruzshunoslikdagi ahamiyati hamda muallifning aruz ilmidagi salohiyatini yanada yorqinroq namoyon qiladi.

Xulosa. Aruz vazni VIII asrda arablarda vujudga kelgan bo‘lsa-da, uning arab va fors she‘riyatidagi rivojiga Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, al-Xorazmiy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi turk olimlari o‘z hissasini qo‘shganlar. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari arab aruzi nazariy asoslarini nafaqat turkiy tilda yaratilganligi bilan, balki arab aruzining turkiylashishi, turkiy tilga mos vaznlarni izohlaganligi bilan ajralib turadi. Mazkur asar aruz vaznining turk she‘riyatida keng qo‘llanilishida nazariy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. DeWeese D. The Predecessors of Nava‘I in the Funun al-balaghah of Shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a Neglected Source on Central Asian Literary Culture from the Fifteenth Century // Journal of Turkish Studies. Vol.29. Festschrift in Honor of Eleazar Birnbaum. Cmbridge, Mass: Harvard University Press, 2005. P.73 – 163.
2. Catalogue of the Persian, Turkish, Hindustani and Pushtu Manuscripts in the Bodleian Library, Part II: Turkish, Hindustani, Pushtu and Additional Persian Manuscripts, ed. Hermann Ethe (Oxford: The Clarendon Press, 1930), col.1225, No. 2170.
3. Бобир Захириддин. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи: С.Ҳасанов. – Т.: Фан, 1971. – Б. 57а.
4. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. (“Балоғат илмлари”) / Масъул муҳаррир Б. Ҳасанов / – Т.: Хазиана, 1996.

5. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. (“Балоғат илмлари”) // Ўзбек тили ва адабиёти, – Т.: Фан, 2002-2003.
6. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 408 б.
7. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 224 б.
8. Yusupova D. Шайх Аҳмад Тарозийнинг “Фунун ул-балоға” асарида туркий аруз масалалари. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал № 4 (23)/ 2018. Б. 269 – 280.

